

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SUG‘URTA FAKULTETI

“SUG‘URTA ISHI” KAFEDRASI

RAXMATOV JAMSHID MAXMUDOVICH

**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUG‘URTA FAOLIYATI,
UNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI VA UNI
TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI”**

5341300 – “Sug‘urta ishi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish
uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Sug‘urta ishi” kafedraasi mudiri

_____ i.f.n., dotsent I.K.Ochilov
“ ” _____ 2014

Ilmiy rahbar _____ i.f.n., dotsent A.Nurullaev
“ ” _____ 2014

TOSHKENT-2014

KIRISH.....

**I BOB. O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA FAOLIYATINI
AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY VA TASHKILIY-
HUQUQIY ASOSLARI**

- 1.1 O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini amalga oshirishning nazariy asoslari.....
- 1.2 Sug‘urta faoliyatini tashkiliy - huquqiy asoslari.....

**II BOB. “O‘ZBEKINVEST” EIMSK VA “O‘ZAGROSUG‘URTA”
DASK SUG‘URTA KOMPANIYALAR FAOLIYATINI
TASHKIL ETILISHI VA ULAR TOMONIDAN
KO‘RSATILADIGAN SUG‘URTA XIZMATLARINI
TAHLILI**

- 2.1 “O‘zbekinvest” EIMSK faoliyatini tashkil etilishi va uning sug‘urta xizmatlari tahlili
- 2.2 “O‘zagrosug‘urta” DASK faoliyatini tashkil etilishi va uning sug‘urta xizmatlari tahlili.

**III BOB. O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA FAOLIYATINI
TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

- 3.1 O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

Kirish

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida sug'urta faoliyatini rivojlantirishga, sug'urta xizmatlari ko'lamini va sifatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Sug'urta va sug'urta faoliyati mamlakat moliya-bank tizimining tarkibiy qismiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida shunday fikrlarni bildirgan edilar: "Sizlarga yaxshi ma'lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatimiz moliya-bank tizimi o'zining barqaror va ishonchli ekanini isbotladi. Shu bilan birga, bu tizimning yanada mustahkamlanishi xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan lizing, sug'urta, kompaniyalari, kredit uyushmalari, mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliyaviy institutlarni tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobidan bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish bilan ham bog'liq"¹. Bugungi kunda mamlakatimizda 33 ta sug'urta tashkiloti yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatayotgan bo'lsa, ularning yarmiga yaqini xususiy mulkka asoslangandir. Sug'urtaning iqtisodiyotni rivojlanishidagi ahamiyatini e'tiborga olgan holda mazkur soha ham doimo davlat rahbarining diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori sug'urta tizimini barqaror faoliyat ko'rsatishi hamda sug'urta xizmatlari bozorini taraqqiy etishi borasida yangi imkoniyatlar yaratdi. Mazkur Qarorga muvofiq, mamlakatda sug'urta sohasining jadal rivojlanishini ta'minlash, aholining sug'urtaga bo'lgan qiziqishini oshirish va sug'urta madaniyatini ko'tarish maqsadida, mol-mulk sug'urtasi bo'yicha aholi va

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir". – T.: O'zbekiston, 2011. T.19. – 98 bet.

korxonalarning to'lagan sug'urta mukofotlari summasi ularning daromad solig'i bazasiga kiritilmasligi shaklida soliq imtiyozi joriy etildi². SHuningdek 2011-2015 yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'rnini tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda³.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti. Sug'urta faoliyati uning tashkiliy-huquqiy asoslari va uni sug'urta bozorida hamda sug'urta kompaniyalar faoliyatida rivojlantirish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Sug'urta faoliyati uning tashkiliy-huquqiy asoslarini nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish va sug'urta faoliyati va uni tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning iqtisodiyot sohasidagi asarlari, iqtisodiyotni isloh qilish, shu jumladan sug'urta faoliyati va uni tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan Prezident farmonlari va qarorlari hamda qonunchilik hujjatlari, xorijlik va mamlakatimiz olimlarining e'lon qilgan ilmiy ishlari.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi. Kirish, 3 ta bob, asosiy mazmunini yorituvchi 5 ta savol, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kabi qismlardan iborat.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – «Xalq so'zi» gazetasi, 2007 yil 11 aprel.

3 Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислоҳ Каримовнинг мамлакатимизнинг 2013 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. - Халқ сўзи» газетаси, 2014 йил 18 январь.

I.BOB. O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini amalga oshirishning nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari

1.1 O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini amalga oshirining nazariy asoslari

Sug‘urta tashkilotlari faoliyatini vujudga kelishi bevosita sug‘urtaning paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liq. Sug‘urta kishilik jamiyatining turli bosqichlarida mavjud bo‘lgan va uzoq tarixga ega. Sug‘urta insoniyat va uning mol-mulkini ishonchli himoyalashning muhim vositasi sifatida o‘zoq tarixga ega. Tarixiy hujjatlarga ko‘ra, notijorat sug‘urtaning dastlabki shakllari, eramizdan 2000 yil oldin Vavilon podshohi Xammurapi qonunlarida, shuningdek, Fors ko‘rfazi, Qadimgi Gretsiya va Misr, Qadimgi Rimdagi savdogarlarning o‘zaro tuzgan bitimlarida o‘z aksini topgan⁴. Bu bitim shartlariga muvofiq, umumiy karvon safida savdo qiluvchi savdogarlardan birortasi stixiyali hodisalar yoki qaroqchilar hujumi oqibatida zarar ko‘rsa, bu zararlar boshqa savdogarlar tomonidan qoplanishi belgilangan. Bu davrlarda maxsus sug‘urta tashkilotlari bo‘lmagan va sug‘urta badallari to‘lanmagan.

Dengiz sug‘urtasi bo‘yicha dastlabki jamiyat (sug‘urta tashkiloti-ta’kid muallifniki) 1668 yilda Frantsiyada tashkil etilgan. XVI asr oxirlarida Londonda xususiy sug‘urtalovchilarning uyushmasi tashkil etilgan. 1871 yilgacha ushbu uyushma “London lloydi” nomi bilan faoliyat ko‘rsatib kelgan. Germaniyadagi dastlabki sug‘urta jamiyatlari 1765 yilda Gamburg va Berlinda tuzilgan⁵.

Dengiz sug‘urtasini paydo bo‘lishi va rivojlanishiga stixiyali hodisalar, qurg‘oqchilik ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, Evropa mamlakatlaridagi urbanizatsiya mulk sug‘urtasining boshqa turlarini vujudga kelishiga olib kelgan. 1666 yilda Londonda katta yong‘in bo‘lgan va natijada 70,0 ming kishi halok bo‘lgan. Bu Evropada yong‘indan sug‘urtalashni paydo bo‘lishiga sharoit yaratgan. Angliyada ko‘plab yong‘indan sug‘urtalash bilan shug‘ullanuvchi jamiyatlar barpo etilgan.

⁴ Gvozdenko A.A. Osnovi straxovaniya: uchebnik. – M.: Finansi i statistika, 2007. – 7 s.

⁵ Saxirova N.P. Straxovanie: uchebnoe posobie. – M.: Prospekt, 2006. – 6 s.

Germaniyada dastlabki yong'indan sug'urtalash bo'yicha aktsiyadorlik sug'urta jamiyati 1812 yilda tuzilgan.

Hayotni sug'urtasi bo'yicha birinchi sug'urta jamiyati "Ekvitebl" nomi bilan 1762 yilda tashkil etilgan. 1830 yilga kelib, Angliyada 35 ta yirik hayotni sug'urtasi bo'yicha jamiyatlar faoliyat ko'rsatgan. Hayotni sug'urtalash bo'yicha dastlabki aktsiyadorlik sug'urta jamiyatlari 1787 yilda Frantsiyada tashkil etilgan. Germaniyada esa 1806 yilga kelib hayot sug'urtasi bo'yicha aktsiyadorlik jamiyati tuzilgan.

XVI asr oxiri va XX asrning boshlariga kelib sanoat ishlab chiqarilishini rivojlanishi mulkiy va shaxsiy sug'urtani taraqqiy etishini ancha tezlashtirdi.

XX asr oxirlarida sanoat sohasidagi tub o'zgarishlar, xususan, ishlab chiqarishda ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish, elektr energiyasidan keng foydalanish texnologik xarakterdagi risklarni keltirib chiqardi.

Sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning nomlanishi turli adabiyotlarda turlicha nomlanadi. Dastlabki paydo bo'lgan sug'urta tashkilotlari sug'urta jamiyati deb atalgan. Keyinchalik, sug'urta tashkiloti, sug'urta kompaniyasi va sug'urtalovchi nomlari shakllandi. Sug'urta tashkiloti, sug'urta kompaniyasi, sug'urtalovchi degan atamalar bir xil ma'noni anglatishini yoddan chiqarmaslik zarur. Mavjud ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qonunchilik hujjatlarida ko'proq "Sug'urtalovchi" degan tushuncha qo'llanilsa, o'quv va ilmiy adabiyotlarda "sug'urta tashkiloti", "sug'urta kompaniyasi" degan atamalar ko'p qo'llaniladi. Masalan, S.V.Ermasov, N.B.Ermasova muallifligida nashr etilgan "Straxovanie" o'quv qo'llanmasida "Sug'urta kompaniyasi" degan tushuncha ishlatilgan⁶.

Sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar sug'urta tashkiloti deb ataladi. Bu tushuncha O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 925-moddasida quyidagicha tarif berilgan: "Tijorat tashkilotlari hisoblangan va tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslar, agar qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa,

⁶ Ermasov S.V., Ermasova N.B. Straxovanie: uchebnoe posobie dlya vuzov. – M.: YuNITI-DANA, 2004.- 462 s.

sug'urtalovchilar sifatida sug'urta shartnomalarini tuzishi mumkin"⁷. Ko'rinib turibdiki, sug'urtalovchi, ya'ni sug'urta tashkiloti maqomiga ega bo'lish uchun, albatta, faoliyat tijorat asosida tashkil etilishi lozim. Ya'ni, sug'urtalovchining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan. Sug'urtalovchi yuridik shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirishi mumkin. Hozirgi kunda sug'urtalovchilar yuridik shaxs sifatida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tishlari shart. Bu haqda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida shunday deyilgan: "Sug'urtalovchilarni davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi"⁸. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, sug'urtalovchi Adliya vazirligida sug'urtalovchi sifatida emas, balki yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tadi. Ammo, bu sug'urtalovchi sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini oldi degan ma'noni anglatmaydi. Sug'urtalovchi sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun qonunda o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani olishi kerak.

Sug'urta tashkilotlariga qo'yiladigan talablar, ularga litsenziya berish va ularning faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, 2002 yilning 28 mayida amaliyotga joriy etilgan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida sug'urtalovchi, ya'ni sug'urta tashkilotiga quyidagicha tushuncha berilgan: "Sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi. Sug'urtalovchi sug'urta hodisalari yuzaga kelishini bartaraf etish va oldini olishga oid chora-tadbirlarni maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda va shartlarda moliyalashtirishga haqli. Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Quyidagilar bundan mustasnodir:

⁷ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. – T.: Adolat, 1996. – 413 b.

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2002 yil 28 may.

maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati;

sug'urta sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyat;


sug'urta agenti sifatidagi sug'urta vositachiligi.

Hozirgi paytda respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari qaysi sug'urta sohasiga ixtisoslashganligiga qarab ikkiga bo'linadi. Buni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin (1-chizmaga qarang).

Ma'lumki, sug'urta tashkilotlari o'z xizmatlarini sotishda sug'urta agentlari tarmog'idan keng foydalaniladilar. Yuqorida qayd etilgan qonunning 9-moddasida sug'urta agenti haqida quyidagi so'zlar keltirilgan: "Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta agenti hisoblanadi"⁹.

Sug'urtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sug'urta agenti bo'la olmaydilar. Sug'urtalovchilar o'zlari vakolat bergan sug'urta agentlarining reestrlarini yuritishlari lozim.

1-chizma¹⁰



Sug'urta tashkilotlari sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs va naf oluvchi, ularning sog'ligining holati to'g'risidagi, shuningdek bu shaxslarning

⁹ O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.// "Xalq so'zi" gazetasi, 2002 yil 28 may.

¹⁰ Муаллифнинг илмий изланишлари натижасидан келиб чиқиб тузилган.

mulkiy ahvoli to'g'risidagi o'z kasb faoliyati natijasida o'zi olgan ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Sug'urta tashkilotlari turli tashkiliy-huquqiy shakllarda tuzilishi mumkin. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasida sug'urtalovchilar qonunlarda nazarda tutilgan barcha tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilishi nazarda tutilgan. Sug'urtalovchilar qaysi mulkchilik shaklida tuzilmasin, ularning ustav kapitaliga bo'lgan talab bir xil darajada o'rnatilgan. Ma'lumki, sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag'laridan shakllantiriladi. Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Sug'urtalovchining ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar sug'urtalovchining muassislari tomonidan to'langan bo'lishi kerak.

Sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatidan keskin farq qiladi. Shu sababli ularning faoliyati litsenziyalanadi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.


Litsenziya sug'urtalovchiga hayotni sug'urta qilish sohasida yoxud umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug'urta sohasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasnodir. Umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Litsenziyada sug'urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug'urta turlari (klasslari) ko'rsatiladi.

Sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 27 noyabrda qabul qilgan qaroriga ko'ra, sug'urta kompaniyalari ustav kapitaliga talablar qo'yildi. Ular quyidagilardan iborat:

Sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag'laridan shakllantiriladi. Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

2-chizma¹¹



Sug'urtalovchining ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar sug'urtalovchining muassislari tomonidan to'langan bo'lishi kerak. Sug'urta kompaniyalari ustav fondining eng kam miqdori: qayta sug'urta qilish faoliyatiga ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun (agar faoliyat mavzusi faqat qayta sug'urta qilish bo'lsa) - 2 mln. AQSh dollariga teng summada belgilandi. Majburiy sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar


¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

uchun ustav fondining eng kam miqdori 500 ming AQSh dollariga teng miqdordagi summada belgilandi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, 2007 yil 10 aprelda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 618-sonli “Sug’urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 618-son qaroriga muvofiq, sug’urta kompaniyalari ustav kapitali eng kam miqdoriga yangi talab o’rnatildi (3-chizmaga qarang). Unga ko’ra:

Qayta sug’urta qilish faoliyatiga ixtisoslashayotgan sug’urtalovchilar uchun (agar faoliyat mavzusi faqat qayta sug’urta qilish bo’lsa) - 3 mln AQSh dollariga teng summada belgilandi. Majburiy sug’urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug’urtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 1,0 mln. AQSh dollariga teng miqdordagi summada belgilandi.

3-chizma¹²



Sug’urta tashkilotlari faoliyatni amalga oshirish chog’ida turli tashkilot va idoralardan axborot olish huquqiga ega. Bu O’zbekiston Respublikasining “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonunning 25-moddasida qat’iy belgilab qo’yilgan.

Unga ko’ra: huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, shuningdek tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari va boshqa

¹² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi 618-sonli “Sug’urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

tashkilotlar sug'urtalovchilarning so'roviga ko'ra sug'urta hodisalarining yuz berishi sabablari va holatlari to'g'risidagi hamda sug'urta to'voni miqdorlari sug'urtalovchi tomonidan aniqlanishi maqsadida etkazilgan zarar to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va xulosalarni taqdim etishlari shart. Maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchilar yoki sug'urta brokerlaridan qabul qilingan pul mablag'lari va majburiyatlarining miqdorlari haqidagi axborotni, shuningdek boshqa axborotni o'z vakolati doirasida talab qilib olishga haqli. Bunday axborotni talab qilib olish yozma ravishda, so'rov sabablari ko'rsatilgan holda amalga oshirilmog'i lozim.

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, sug'urta tashkilotlari faoliyatini vujudga keltiruvchi iqtisodiy shart-sharoitlar uzoq tarixga ega bo'lib, turli davrlarda har xil xususiyatlarga ega bo'lgan. Avvalo, sug'urta tashkilotlari faoliyatini vujudga kelishida xavf-xatarlarning doimo mavjud bo'lish ehtimoli katta o'rin egallaydi. Shu tufayli, sug'urta tashkiloti deganda sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi. Sug'urtalovchi sug'urta hodisalari yuzaga kelishini bartaraf etish va oldini olishga oid chora-tadbirlarni maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda va shartlarda moliyalashtirishga haqli. Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

1.2 Sug'urta faoliyatini tashkiliy- huquqiy asoslari

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, davlat mulki, davlat-aksiyadorlik shaklida va ma'suliyati cheklangan jamiyat shaklida sug'urta tashkilotlari tashkil etila boshlandi. SHu bilan bir qatorda sug'urtalovchilar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi ham ishlab chiqildi. Masalan aksiyadorlik shaklidagi sug'urta tashkilotlarining faoliyati «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun bilan bir qatorda «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi

Qonunga muvofiq huquqiy tartibga solinadi. Aksiyadorlik sug'urta tashkilotlari yopiq va ochiq turda tashkil etilishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatidan tubdan farq qilishiga qaramasdan amaldagi qonunchilikka muvofiq ular turli tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilishi mumkin. Chunonchi, 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunda "Sug'urtalovchilar qonunlarda nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllarda tuziladi" deb qayd etilgan¹³.

2013 yil 1 may holatiga mamlakatimizda 33 ta sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatadi. Ularning 2 tasi hayot sug'urtasida, 31 tasi umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta xizmatlarini ko'rsatadi¹⁴.

Hozirgi kunda faqat yagona sug'urta tashkiloti, ya'ni "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi to'liq davlat mulkiga asoslangan. Eksport o'sishini rag'batlantirish, o'zbekistonlik eksportchilarni sug'urta himoyasiga olish va mahalliy mahsulotlarni xalqaro texnologiyalar, tovarlar va xizmatlar bozoriga kompleks marketing uslublari vositasida kirib borishini ta'minlashi maqsadida, kompaniya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 18 fevraldagi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 28 fevraldagi Qarori bilan «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi etib qayta tashkil etilgan.

Kompaniyaning ustav jamg'armasi 60 mln.AQSh dollari miqdorida belgilangan bo'lib, ta'sischilar tomonidan: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 50 mln. AQSh dollari va Tashqi iktisodiy aloqalar milliy banki 10 mln. AQSh dollari kiritilgan.

Aksiyadorlik shaklidagi sug'urta tashkilotlarining faoliyati «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun bilan bir qatorda «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq huquqiy tartibga solinadi. Aksiyadorlik sug'urta tashkilotlari yopiq va ochiq

¹³ O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – "Xalq so'zi", 2002 yil 28 may.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

turda tashkil etilishi mumkin. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida boshqa mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlari bilan bir qatorda aktsiyadorlik sug'urta tashkilotlari ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishmoqda. Ular jumlasiga ochiq aktsiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan «O'zagrosug'urta» va «Kafolat» davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyalarini, «Madad» sug'urta agentligini, «Kapital sug'urta» ochiq aktsiyadorlik jamiyatlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Ochiq aktsiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan sug'urta tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – ular aktsiyalarining fond bozorida erkin savdoga qo'yilishidir. hozirgi kunda ushbu sug'urta tashkilotlari tomonidan sotuvga chiqarilgan aktsiyalar to'liq investorlar o'rtasida joylashtirilgan bo'lsada, ular ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida oldi-sotdi ob'ektiga aylangani yo'q.

O'zbekiston Respublikasining «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, aktsiyadorlik shaklidagi jamiyatlarning, shu jumladan sug'urta tashkilotlarining oliy boshqaruv organi – aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi maxsus vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Sug'urta tashkiloti nizomiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish;
- Sug'urta tashkilotini qayta tashkil etish;
- Sug'urta tashkilotini tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy balansni tasdiqlash;
- Sug'urta tashkiloti kuzatuv kengashining tarkibi va sonini aniqlash, uning a'zolari va raisini saylash;
- E'lon qilingan aktsiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- Sug'urta tashkilotining ustav kapitalini ko'paytirish;
- Sug'urta tashkilotining auditorini tasdiqlash;

Shunisi diqqatga sazovorki, aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi bir yilda kamida bir marta chaqiriladi. Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi unda

qatnashayotgan aktsiyadorlar yoki ularning vakillarining kamida 60 foiz ovozga ega bo'lsa, vakolatli deb hisoblanadi.

Sug'urta tashkiloti kuzatuv kengashi aktsiyadorlar orasidan saylanib, ular umumiy yig'ilish orlag'ida aktsiyadorlarning manfaatlarini himoya etadi.

Sug'urta tashkiloti kuzatuv kengashi quyidagi huquqlarga ega:

- Sug'urta tashkilotining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;
- Aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibini belgilaydi;
- Obligatsiyalar va qimmatli qog'ozlarni joylashtiradi;
- Sug'urta tashkiloti filiallari va vakolatxonalarini tashkil etadi va tugatadi.

O'zbekistonda ochiq shakldagi aktsionerlik sug'urta tashkilotlari bilan bir qatorda yopiq aktsionerlik sug'urta tashkilotlari ham faoliyat ko'rsatadi. Bunga misol tariqasida "ALFA INVEST" sug'urta kompaniyasini keltirish mumkin. Shuningdek, «Unibaltic insurance», «UNIVERSAL SUG'URTA» kabi sug'urta tashkilotlari ham yopiq aktsionerlik jamiyati shaklida tashkil etilgan.

Agar yopiq va ochiq aktsiyadorlik jamiyatlari o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarini qiyoslaydigan bo'lsak, yopiq aktsiyadorlik jamiyatlarida ko'p jihatdan mas'uliyati cheklangan jamiyat bilan o'xshash tomonlarini (qatnashchilar (aktsiyadorlar) soni, huquqlarning cheklanganligini (imtiyozli sotib olish huquqiga ega boshqa aktsiyadorlar roziligi va sh.k.) ko'rishimiz mumkin. Yopiq aktsiyadorlik jamiyatlari a'zolarining soni 50 dan ortib ketishi mumkin emas. Oshib ketgan taqdirda u ochiq aktsiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi yoki tugatilishi shart.

Ochiq aktsiyadorlik jamiyati qatnashchilarining soni cheklanmagan. Uning qatnashchilari o'zlariga tegishli aktsiyalarni boshqa aktsiyadorlarning rozilgisiz o'zgalashtirishlari mumkin. Ochiq aktsiyadorlik jamiyati har yilgi o'z moliyaviy hisobotlarini matbuotda e'lon qilishi shart, yopiq aktsiyadorlik jamiyatlariga esa bunday majburiyat faqat qonunda ko'zda tutilgan holatlarda yuklatiladi (masalan, agar bunday jamiyat sug'urta amaliyotlarini amalga oshiradigan bo'lsa).

Yopiq aktsionerlik jamiyatini boshqarish (boshqaruvning oliy organi faoliyati masalasida ham, uning ijro organi masalasida ham) mas'uliyati cheklangan jamiyatlar boshqaruv organiga juda o'xshash, ochiq aktsiyadorlik jamiyatida esa "bitta (oddiy) aktsiya - bir ovoz" tamoyili asosida boshqariladi va kollegial usuldagi ijro organi maqsadga muvofiqroq ko'riladi. Ochiq aktsionerlik jamiyatlarining boshqa bir qator o'ziga xos jihatlari ham mavjudki, ular uzoq muddatli sug'urtalash ishlarini olib boruvchi kompaniyalar uchun eng maqbul hisoblanadi. Bunday xususiyatlar qatoriga jamiyatning nazorat va kuzatuv organlari mavjudligi, ayrim organlarining nihoyatda mas'uliyatli ekanligi va ular o'rtasida vakolatlarning taqsimlanish tizimiga egaligi kabilar bilan belgilanadi.

Bularning barchasi sug'urta qonunchiligining negizini tashkil etuvchi qoida, hayotni sug'urtalash ishi bilan faqat ochiq turdagi aktsionerlik jamiyatlari shaklida tuzilgan sug'urta kompaniyalari shug'ullanishi mumkinligiga asoslanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ustav kapitalining nisbatan katta miqdorda emasligi, uning qatnashchilari jamiyatning majburiyatlari yuzasidan cheklangan javobgarlikka ega ekanliklari sababli mazkur tashkiliy-huquqiy shakl sug'urta tashkilotlari uchun moliyaviy barqarorligi jihatidan bir muncha kamroq jozibaga ega.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatining aktsiyadorlik shakli, o'z navbatida to'la ma'nodagi xolding korporativ sug'urta tarkibiy tuzilmasini tashkil etish imkonini beradi. Bu esa ayniqsa o'z hududiy siyosatini rivojlantirish bilan shug'ullanayotgan sug'urta tashkilotlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 16-bobi xususiy mulkka bag'ishlangan bo'lib, uning 207-moddasida «xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir», deb ko'rsatilgan. Sug'urta tashkilotlari xususiy mulk shaklida ham tashkil etilishi mumkin. Shuningdek sug'urta tashkiloti mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat shaklida ham tashkil etiladi. «UNIPOLIS», «ARK SUG'URTA» va

«Transinsurance» kabi sug'urta tashkilotlari mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida faoliyat ko'rsatmoqda.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deganda bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati tushuniladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida alohida qayd etilgan. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Biz yuqorida sug'urta tashkiloti qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat shaklida ham barpo etilishi mumkin, deb ta'kidlagan edik. Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat hisoblanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tuzilgan sug'urta tashkilotining ishtirokchilari bo'ladi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari bo'lishi mumkin emas. Ta'kidlash joizki, mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilgan sug'urta tashkiloti ishtirokchilarining soni ellik kishidan oshmasligi lozim.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari sug'urta tashkilotlari tashkiliy-huquqiy shakllariga o'zaro sug'urta qilish jamiyatlari ham kiradi. Garchi, sug'urtalovchilarning bunday shakli O'zbekistonda mavjud bo'lmasada, ular rivojlangan xorijiy davlatlar sug'urta bozorida muhim mavqega ega.

O'zaro sug'urtalash – sug'urtalashning “mafkuraviy toza” shakllaridan bo'lib, u sug'urta ishtirokchilari o'rtasida xatarlarni o'zaro bo'lishib olishdan iborat va bunda foyda olish maqsadi ko'zda tutilmaydi.

O'zaro sug'urtalashga zarurat quyidagilar bilan izohlanadi:

- sug'urtalanuvchilarda iqtisodiy sug'urta himoyasiga ehtiyoj tug'ilishi, bunga esa sug'urta jamg'armasidan maqsadli ravishda foydalanib, zararni o'zaro sug'urtalash jamiyatining a'zolari o'rtasida taqsimlab chiqish hisobiga erishiladi,

- tijorat asosida sug'urtalovchilar quyidagi ayrim sabablarga ko'ra o'z zimmasiga qabul qilishni istamaydigan ko'plab xatar turlari mavjud: tez-tez zararga yo'liqib turilishi, sug'urta summalarining nihoyatda katta ifodaga ega ekanligi, xatarlarning kutilmagan jihatlari ko'pligi va h.k.

O'zaro sug'urtalash mana shu turda sug'urtalashni amalga oshirayotgan jamiyat qatnashchilarining huquqiy munosabatlarini aks ettiradiki, bu qatnashchilar bir vaqtning o'zida ham jamiyat a'zolari sifatida, ham sug'urtalanuvchilar sifatida yuz ko'rsatadilar. O'zaro sug'urtalash jamiyati va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar assotsiatsiya darjasidagi o'z-o'zini sug'urtalash jamg'armasi munosabatlarini eslatadi, faqat bu holda hamma va har kim zararni taksimlash orqali qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Tijorat asosidagi sug'urtalovchining sug'urta jamg'armasini shakllantirish esa vositachi-tadbirkor, ya'ni asl maqsadi foyda chiqarib olishdan iborat bo'lgan ixtisosli va o'zi uchun beistisno hisoblangan sug'urta faoliyatini yurituvchi tijorat asosidagi sug'urta tashkiloti ishtirokida amalga oshiriladi.

O'zaro sug'urtalash – sug'urta jamg'armasini notijorat asosda tashkil etilishi bo'lib, u jamiyat a'zolarining mol-mulk manfaatlariga nisbatan sug'urta himoyasini mana shu ish uchun zarur miqdordagi mablag'larni o'zaro o'rtaga tashlab yig'ish asosida taqdim etadi. O'zaro sug'urtalash jamiyati a'zolari bir vaqtning o'zida sug'urtalanuvchilar sifatida ham yuz ko'rsatayotganlari sababli, bu hol sug'urta himoyasi jamiyat a'zolariga eng qulay (minimal) baholarda taqdim etilishi uchun iqtisodiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zaro sug'urtalashning tashkiliy tamoyili nihoyatda sodda bo'lib, sug'urta hodisasi sodir bo'lgan holda zarar summasini taqsimlab yuborishdan iborat. Yuridik nuqtai nazardan o'zaro jamiyatda har bir mijoz bu jamiyatning egaligiga ham sherik bo'lib hisoblanadi. Kapitalga egalik qilish huquqini beruvchi hujjat bu o'rinda aktsiya emas, balki sug'urta polisining o'zi bo'lib hisoblanadi, bu

holda zararni avvaldan taqsimlash vujudga keladi, ya'ni avval sug'urta jamg'armasi tashkil etiladi, va unga yig'ilgan mablag'lar zarar ko'rilgan holatda sarflanadi. Shakllantirilgan jamg'armaning miqdori haqiqatda ko'rilgan zarar hajmiga mos kelmay qolishi xatari ikki usulda bartaraf etilishi mumkin: sug'urta jamg'armasi miqdorining amaldagi zararga mutanosib kelmasligi sug'urtalanuvchilar (o'zaro sug'urtalash) zimmasiga yuklatilishi mumkin, yoki uchinchi shaxslarga yuklatilishi mumkin (tijorat asosidagi sug'urta). Aktsiyadorlik va o'zaro sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi asosiy farq ham xuddi shunda, ya'ni sug'urta jamg'armasiga nisbatan egalik huquqida aks etadi.

Sug'urta jamg'armasi hajmi zarar summasidan yuqori bo'lgan holda, ana shu oshiqcha summa sug'urtalovchi uchun foyda bo'lib hisoblanadi va sug'urtalovchi undan o'z ixtiyoriga binoan foydalanadi, o'zaro sug'urtalash jamiyatlarida esa bunday oshiqchalik sug'urtalanuvchilarning mulki bo'lib hisoblanib, ularning o'rtasida taksimlanishi yoki jamiyat ixtiyorida qoldirilishi mumkin. Xuddi shu narsa o'zaro sug'urtalashning foyda keltirmasligi yoki uning notijorat xususiyatga ega ekanligini aks ettiradi.

O'zaro sug'urtalashning yana bir o'ziga xosligi – jamiyat qatnashchilarining bir toifadagi shaxslardan iborat ekanligidadir, tarixiy jihatdan o'zaro sug'urtalash shunday shakl olgan, ya'ni u bir xildagi kasb egalari yoki bir xil faoliyat turi bilan shug'ullanuvchilar o'rtasida tuziladi.

O'zaro sug'urtalash jamiyati tomonidan sug'urtani notijorat asosda amalga oshirilishi foyda olishni ko'zda tutilmasligidir. Sug'urta badallarining sug'urta to'lovlaridan oshib ketishi mumkinligi ehtimoli, shuningdek, jamiyat tomonidan olingan investitsiya daromadi quyidagi vazifalarga yo'naltiriladi:

- a) sug'urta qiymatini pasaytirishga va (yoki)
- b) to'lov layoqatini va moliyaviy barqarorlikni oshirishga, mana shular bajarilganidan keyin qoladigan ortiqcha mablag':
 - a) jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlanadi, yoki
 - b) kelgusi sug'urta davri uchun sug'urta mukofoti to'loviga qo'shib hisoblanadi, yoki

v) jamiyat ixtiyorida qoldiriladi.

Shunday vaziyatlar ham vujudga kelishi mumkinki, bunda o'zaro sug'urtalash jamiyati tomonidan muayyan miqdordagi jamg'arma hosil etilgach, jamiyat o'z a'zolarini ma'lum vaqtga qadar sug'urta badallarini to'lashdan ozod etib qo'yishi mumkin (bunday imkoniyat xorijdagi o'zaro sug'urtalash jamiyatlarining faoliyat tartibiga kiritilgan, biroq ana shu imkoniyatdan foydalanilgan holatlar nihoyatda kam). Ammo, zarar miqdori sug'urta jamg'armasi hajmidan katta bo'lgan hollarda, jamiyat a'zolari qo'shimcha to'lovlarni amalga oshiradilar.

Shunday qilib, tijoratga asoslangan sug'urta tashkilotida sug'urta qiymati, odatda, o'zaro sug'urtalash jamiyatidagiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi, zero tijoratga asoslangan sug'urta tashkilotida sug'urta qiymati ish yuritish uchun qilingan xarajatlardan tashqari, aktsiyadorlarga (qatnashchilarga) beriladigan dividend tarzidagi daromadni ham o'z ichiga oladi.

II.BOB. “O‘zbekinvest” EIMSK va “Kafolat” DASK sug‘urta kompaniyalar faoliyatini tashkil etilishi va ular tomonidan ko‘rsatiladigan sug‘urta xizmatlarini tahlili

2.1 «O‘zbekinvest» EIMSK faoliyatini tashkil etilishi va uning sug‘urta xizmatlari tahlili

O‘zbekistonda moliyaviy tizimni shakllanib borishi va xalqaro amaliyotda foydalaniladigan moliyaviy zarardan ishonchli himoya qilishni rivojlantirishda qo‘yilgan o‘ziga hos qadamlardan biri 1994 yilda «O‘zbekinvest» milliy sug‘urta kompaniyasini tashkil etilishidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlanishini rag‘batlantirish, o‘zbekistonlik eksportchilarni sug‘urta himoyasiga olish va mahalliy mahsulotlarni xalqaro texnologiyalar, tovarlar va xizmatlar bozoriga kompleks marketing uslublari vositasida kirib borishini ta‘minlashi maqsadida, kompaniya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 18 fevraldagi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 28 fevraldagi Qarori bilan «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi etib qayta tashkil etilgan.

Kompaniyaning ustav fondi 60 mln.AQSH dollari miqdorida belgilangan bo‘lib, ta‘sischilar tomonidan: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 50 mln. AQSH dollari va Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki 10 mln. AQSH dollari kiritilgan.

«O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi oldiga respublika xukumati tomonidan qo‘yilgan asosiy vazifa - xorijiy investorlar va milliy eksport qiluvchilarni investitsiya hamda tadbirkorlik faoliyati jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan, qaltisliklardan ishochli sug‘urta kafolatlari bilan ta‘minlashni hal etish quyidagilarni nazarda tutadi:

- xorijiy hamkorlar tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarishga to‘sqinlik qiluvchi siyosiy va tijorat risklaridan chet eldagi milliy eksport qiluvchilarni iqtisodiy manfaatlarini kompleks sug‘urta himoyasi bilan ta‘minlash;

- eksport kreditlarining xalqaro tamoyillarga binoan texnologiya, tovar va xizmatlarni eksportini moliyalashtirish uchun kreditlar ajratadigan O'zbekiston Respublikasining rezident tijorat banklariga sug'urta himoyalarni taqdim etish;
- texnologiya, tovar va xizmatlar xalqaro bozorining rivojlanish istiqbollari va holatini kompleks marketing tahlilini tashkil etish, milliy ishlab chiqaruvchilarning eksport imkoniyatlarini o'rganish va texnologiya tovar hamda xizmatlarni xalqaro bozorlarda taqdim etish strategiyasini ishlab chiqish;
- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga kapital qo'yilmalarni amalga oshirayotgan xorijiy investorlarning mulkiy va shaxsiy manfaatlarini kompleks sug'urta himoyasi bilan ta'minlash.

«O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi qayta tashkil etilganidan boshlab xalqaro bozorda faolroq qatnashish maqsadida 1997 yil Bern Ittifoqining Praga Klubiga a'zolikka kirdi.

Praga klubi Bern Ittifoqi doirasidagi tuzilma bo'lib, uning asosiy vazifasi yangi va o'sib borayotgan kredit agentliklari tomonidan eksport krediti va investitsiyalarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatilishida ko'maklashish hisoblanadi. Praga Klubining a'zolari ma'lum darajagacha rivojlangandan so'ng Bern Ittifoqiga a'zo bo'ladilar. Bunday maqsadga erishish uchun «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tomonidan keng miqyosdagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan Bern Ittifoqi a'zolarining xar yilda bo'lib o'tadigan uchrashuvida faol qatnashib keladi va bu uchrashuvlar jarayonida boshqa a'zolar bilan o'zaro hamkorlik to'g'risida turli xil shartnomalarni imzolamoqda.

Hozirgi kunda mamlakat sug'urta bozorida o'zining tegishli obro'siga va mavqeiga ega bo'lgan «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi o'tgan davrlarda shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'tdi hamda ayni paytda u bozor sharoitida ishlash bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega, barqaror moliyaviy potensialni yaratish va rivojlantirish xamda ishchanlik faoliyatini kengaytirish borasidagi to'plangan ulkan bilim va ko'nikmalarga ega. SHu bilan birga kompaniya faoliyatini rivojlantirish uchun ulkan salohiyat

mavjud. Bu salohiyat uning xizmatlar turini, sifatini va hajmini oshirishdagi imkoniyatlaridadir.

Bunday imkoniyatlar nimalarga asoslanishi ilmiy tahlil etilsa quyidagilar ayon bo'ladi:

Fundamentallik. Ma'lumki O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirishdagi muhim yutuqlaridaa biri sug'urtada bozor munosabatlarini shakllantirish, davlat sug'urtasining monopoliyasiga barham berish va sug'urta sektorini mavqeini ko'tarish bo'ldi. Bu davlat boshqaruv organlari tomonidan sug'urtani mamlakat bozor infrastrukturasiining asosiy qismlaridan biri deb biluvchi faol siyosatining mahsulidir.

Sug'urta bozorining rivojlanib borishi mamlakat iqtisodiyotidagi ijobiy o'zgarishlar, valyuta siyosatini erkinlashuvi va tashqi iqtisodiy aloqalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan qonunchilik-me'yoriy asoslarni takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Mustaqil mamlakatimizda sug'urta bozorining shakllanishida o'ziga hoslik bor. Yirik milliy kompaniya bo'lgan «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasining xamda davlat kapitali ishtirokidagi boshqa ihtisoslashgan kompaniyalarning tashkil etilishi mamlakatda sug'urta biznesi rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratdi va O'zbekistonni xalqaro moliyaviy xamjamiyatiga kirib borishi uchun qulay sharoitlar yaratdi. SHu sababli sug'urta bozorining etakchilaridan biri bo'lgan «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishidagi erishilgan yutuqlarga tayangan holda o'zining biznes faoliyatini yanada rivojlantirish uchun mustahkam asosga ega.

Maqsadga intiluvchanlik. Tashkil qilinishining asosiy maqsadiga amal qilgan holda, «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi mijozlarga jahon andozalariga mos keluvchi xizmatlar ko'rsatadigan, etakchi o'zbek sug'urtalovchilaridan biri bo'lib, mahalliy sug'urta bozorida yangi bo'lgan mahsulotlarni yaratish va joriy qilishda ma'lum muvaffaqiyatlarga

erishdi. Eng asosiysi, kompaniya o'zining faoliyati davomida keng xalq ommasi, hamkorlari va mijozlarining ishonchini qozondi.

Bozorni moliyaviy infratuzilmasini shakllantirish umumdavlat ustivor yo'nalishlarini amalga oshirish sug'urta bozoridagi o'zining o'rnini mustahkamlash borasidagi maqsadli siyosatni olib borishi tufayli 2011 yil xamda 2012 yil yakuniga ko'ra kompaniyaga "Saipro" reyting agentligi tomonidan uzA+ «YUqori ishonchlilik darajasi» reytingi berildi, bu bilan kompaniyaning yuqori moliyaviy barqarorligi tasdiqlandi.

Hozir shuni mamnuniyat bilan aytish mumkinki, «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi sug'urta bozoridagi ma'lum raqobat afzalliklari butun respublika bo'yicha distribyuterlik tizimiga egaligi, kerakli axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari mavjudligi, savdo markasining potensial sug'urtalanuvchilar ichida tanilganligi xamda moliyaviy barqaror va ishonchli kompaniya sifatidagi obro'si borligidadir.

Keng qamrovlilik. Kompaniya ixtisoslashgan tuzilmalar tarmog'ini kengaytirish siyosatini olib borib, sug'urtalash jarayoni hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayoni bilan bog'liq rivojlangan va moslashuvchan tashkiliy tuzilmani shakllantirdi. Bular jumlasiga o'quv markazi, viloyatlardagi va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi xududiy filiallar tizimi, London shahridagi «O'zbekinvest Interneshnl», qo'shma korxonasi, to'rtta ixtisoslashgan sho'ba korxonalar: «O'zbekinvest Eksiminform» Marketing agentligi, «O'zbekinvest Assistans» Servis agentligi, «O'zbekinvest Sarmoyalari» investitsiya kompaniyasi va «O'zbekinvest Xayot» sho'ba sug'urta kompaniyasi kiradi.

Innovatorlik. «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tashkil qilingan vaqtdan boshlab, yangilikni joriy qiluvchi kompaniya sifatida tanildi. Yangilikni joriy etish kompaniya marketing faoliyatining turli bosqichlarida namoyon bo'lmoqda: bozor ehtiyojlariga javob beradigan, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish; bozorda o'ziga munosib o'rinni tanlab olish va egallab turish; biznes maqsadiga erishish uchun yangi marketing kommunikatsiyalarini topish va ishlatish.

Kompaniya xozirgi zamon marketing kommunikatsiyalarini ishlatib o'zining mavqeini ko'rsatish maqsadiga yo'naltirilgan reklama axborot ishlarini jamoat ichida olib borgan maxalliy bozordagi sug'urta kompaniyalardan eng birinchisi bo'ldi. SHuni aytish lozimki berilayotgan reklamalar keng xalq ommasida sug'urta xaqida ijobiy fikr hosil qilish, sug'urtaga ishonch uyg'otishga yo'naltirilgan.

Sifatlilik. Xar qanday tashkilot tomonidan taklif etilayotgan xizmatlarning yuqori sifatli bo'lishi uning biznesdagi muvafaqqiyatining hayotiy zarur sharti hisoblanadi. 2003 yil dekabr oyida RW TUV (Germaniya) sertifikatlash tashkiloti tomonidan o'tkazilgan sertifikatsion audit yakunlariga ko'ra, «O'zbekinvest»ning sifatni boshqarish tizimi xalqaro ISO 9001:2000 standartiga to'g'ri kelishi e'tirof etildi va jahonning barcha mamlakatlarida tan olingan TUV CERT sertifikatini oldi.

Sifatni boshqarish tizimining asosiy vazifasi xizmatlar sifatini iste'molchilar talabiga javob beradigan darajaga etkazish, uni barqaror ushlab turish va buning natijasida mijozlar mamnunligining o'sishi va sug'urta bozorida raqobatda ustunlikka erishishdan iborat.

SHu bilan birga bunday sertifikatning mavjudligi kompaniya jahonning etakchi sug'urta tashkilotlarining ishonchini qozonishi uchun va «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasining xalqaro sug'urta bozoriga yanada integratsiyalashuviga yordam beradi.

Ishonchlilik. Xizmatlarning ishonchliligini ta'minlash uchun, xar qanday sug'urta kompaniyasi kabi «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi xam qaltislik darajasini kamaytirish xaqida qayg'uradi. Ma'lumki, kaltisliklarni qayta sug'urtalash, amalga oshirilayotgan sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tomonidan mahalliy qayta sug'urtalash bozorini rivojlantirish borasida va xalqaro sug'urtalash va qayta sug'urtalash bozorini faol o'zlashtirish bo'yicha ilk qadamlar qo'yilgan. Bu kompaniyaga Evropa Ittifoqi, AQSH,

MDH, Boltiqbo‘yi, YAponiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarning sug‘urta va qayta sug‘urtalash kompaniyalari, eksport-kredit agentliklari bilan bevosita hamkorlik o‘rnatishga imkoniyat yaratdi.

Moliyaviy barqarorlik va mijozlar manfaatini himoya qilishning maksimal ishonchliligiga erishishga sug‘urta qoplamasi taqdim etish muddatlarini optimallashtirish, ularning ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini samarali boshqarish yordam bermoqda. Bunday optimal ob‘ektiv yondashish natijasida kompaniya o‘zining uzoq yillik faoliyati davomida hamkorlari himoyasining ishonchli kafolati imijini saqlab kelmoqda.

Kompaniyaning investitsiya faoliyati sug‘urta zahiralarini joylashtirish masalasini inflyasiya darajasiga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan daromadlilikka erishib, yuqori likvidlikni xamda tizimli va narx qaltisliklarini taqsimlashni ko‘zda tutadi. Albatta bunday yondashuv o‘zining samarasini beradi.

Tanilganlik. Xozirgi kunda «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi bozordagi eng yirik sug‘urtalovchi bo‘lib, katta imkoniyatlarga ega. Kompaniya davlat organlari tomonidan tashkil qilinadigan ishchi guruxlar tarkibida qonuniy va me‘yoriy xujjatlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

Xalqaro tashkilotlar bilan xamkorlik qilish ko‘p yo‘nalishli va o‘zaro tanilganlik asosida olib borilishi o‘zini samarasini beradi. Qayta sug‘urtalash operatsiyalarini rivojlantirish, sug‘urta ishini tashkil etish tajribasini o‘rganish, xodimlarni o‘qitish tizimi asosini yaratib borib, kompaniya tashkil etilgan davrlardan beri, turli mamlakatlardagi 50 dan ortiq moliyaviy tashkilotlar bilan ikki tomonlama bitimlar tuzilgan. Bu esa kompaniyaning chet elliklar uchun O‘zbekiston bozoridagi ishonchli va istiqbolli xamkori sifatida tan olinganligini isbotidir.

Kompaniya amalga oshirayotgan sug‘urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash maqsadida jahonning tanilgan va etakchi Marsh, AON, Villis sug‘urta brokerlari va Myunxen, Syurix, Alyans qayta sug‘urta jamiyatlari bilan faol ish olib borilmoqda.

Sugʻurta toʻliq ishonchga asoslangan soha. SHu sababli, sugʻurta mahsuloti xayot davrining barcha bosqichlarida mijozlar bilan muloqotda boʻlgan mutaxassis-xodimlar yuqori mahoratli boʻlishligi taqozo qilinadi. Kompaniyada kadrlarni tayyorlash, oʻqitish, oʻrgatish boʻyicha samarali tizim yoʻlga qoʻyilgan. Buning natijasida kompaniyaning uzluksiz rivojlanishiga erishiladi. Kompaniya oldiga davlat tomonidan qoʻyilgan vazifalarni bajarishda kompaniyaning yosh jamoasining gʻayrati, shijoati va yuksak kasbiy mahorati asosiy kafolatlardan biridir.

Kommunikabellik. Mamlakat miqyosida tashkil qilingan kompaniyaning hududiy filiallarining xar biri oʻzining xududida sugʻurtaga boʻlgan extiyojlarni qondirish bilan bir qatorda, aholining sugʻurta haqidagi tushunchasini shakllantirishda, ularda sugʻurtaga ishonchni oshirishda oʻz xissasini qoʻshadi. Xududiy filiallar tizimi, ulardagi xodimlarning mahorati, xizmat koʻrsatishning yuqori sifati kompaniyaning mahalliy bozordagi tutgan oʻrnini mustahkamlashga nufuzli mijozlarning ishonchini qozonishga kafolat boʻladi.

YUqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki sugʻurta biznesini ilmiy tashkil etish: tashkilotning oʻziga xosligi va tutgan oʻrnini aniqlab olish; biznesni yuritishda yangilikni doimo kiritib borish; raqobatdagi oʻz afzalliklarini doimo izlash, topish va foydalanish; xar bir mijozning talablariga qarab ish koʻrish, bozor munosabatlari rivojlanib borayotganda oʻz samarasini berishini isbotlaydi. Ayni paytda, «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasi oʻzini respublikada sugʻurta madaniyatini rivojlantiruvchi milliy sugʻurta kompaniyasi vazifasini bajarayotgan ijtimoiy yoʻnalishdagi tashkilot deb hisoblaydi. SHu sababli kompaniya mamlakatda sugʻurta madaniyatini shakllantirishda faol oʻrin egallab, milliy sugʻurta bozorida amalga oshirilayotgan barcha asosiy loyihalarda ishtirok etib kelmoqda. Respublikada sugʻurtani rivojlantirishda, sugʻurtaning afzalliklari va aholining sugʻurta madaniyatini oshirishni targʻib qilish maqsadida zamonaviy PR-kommunikatsiyalardan foydalangan holda toʻgʻridan-toʻgʻri reklama aksiyalarini

o'z ichiga oluvchi keng ko'lamli reklama-axborot tadbirlarini o'tkazishni davom ettirmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonning sug'urta bozori tobora jadal rivojlanmoqda. Kundalik hayotimizda sug'urta xizmatlaridan borgan sari tez-tez foydalanadigan bo'lib qoldiq va bu holdan tegishli vakolatli davlat organlari e'lon qilayotgan statistika ma'lumotlari ham dalolat bermoqda. SHu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 12 fevraldagi majlisida qilgan ma'ruzasida bu tarmoqda, aynan biznesni sug'urtalash sohasida olib borilayotgan ishlar etarli emasligi ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasini 2012 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasining 2013 yilda rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. CHunonchi:

Birinchi yo'nalish - ko'rsatilayotgan sug'ypta xizmatlarining ham butunlay, ham ayrim turlar bo'yicha sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish yo'li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga har tomonlama yordam berish.

Ikkinchi yo'nalish - eksport-importni sug'urtalash hajmlarini oshirish yo'li bilan milliy eksportimizning rivojlanishiga, milliy eksportchilar orasida reklama, tushuntirish (seminarlar, o'quv kurslari) va maslahat berish ishlarini keng amalga oshirishga, vazirliklar va idoralar bilan, qo'shma korxona va tashqi savdo kompaniyalari bilan yaqindan hamkorlik qilishga har tomonlama ko'maklashish.

Uchinchi yo'nalish - chet ellik investorlarning manfaatlarini va ular amalga oshirayotgan investitsiya loyihalarini cyg'ypta himoyasi bilan ta'minlash vositasida chet el investitsiyalarini jalb etishga har tomonlama yordam berish.

To'rtinchi yo'nalish - ipotekani kreditlashni, iste'mol kreditlarini va mikrokreditlarni, lizingni sug'urtalash (mol-mulkni, garovga qo'yilgan mol-

mulkni sug'urtalash va hokazo) xizmatlari sohasini va hajmini kengaytirish yo'li bilan bank-moliya tizimi yanada rivojlanishiga har tomonlama yordam berish.

Beshinchi yo'nalish - jismoniy shaxslarni sug'urtalashni rivojlantirish hamda hayotni sug'urtalash, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, tibbiy sug'urta, mol-mulkni, javobgarlikni sug'urtalashni rivojlantirish, respublikaning barcha mintaqalaridagi mahalliy boshqaruv organlari (mahallalar) bilan yaqindan hamkorlik qilish, ijobiy ijtimoiy fikrni shakllantirish hamda sug'urta institutiga ishonchni oshirish maqsadida keng reklama-tushuntirish ishini olib borish yo'li bilan aholini ijtimoiy himoyalash vositalarini ta'minlash va takomillashtirishga har tomonlama yordam berish.

Oltinchi yo'nalish - yirik xatarlarni qayta taqsimlash hamda chet el sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalari bilan amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish orqali kompaniyaning xatarlarni diversifikatsiyalash strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini yanada tuliq ta'minlash.

Ettinchi yunalish - respublika mintaqalarida sug'urtani yanada rivojlantirish va takomillashtirish, vakillar va distribyutorlar tarmog'ini kengaytirish, kompaniya xodimlarining malakasi va professional darajasini oshirish.

2012 yilda erishilgan natijalar to'g'risida so'z borar ekan, shuni ko'rsatib o'tish zarurki, «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi 126 mingta shartnoma tuzdi va 42,8 mlrd. so'mdan ko'proq sug'urta mukofotlarini to'pladi. To'plangan mablag'ning 56 foizdan ko'ppog'i xududiy filiallarning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa, sug'urta mintaqalarda ham rivojlana boshlaganligidan darak beradi. 2012 yilda "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha qabul qilib olingan sug'urta majburiyatlari 36800,0 mlrd.so'mni tashkil etgan. Buni quyida keltirilgan diagramma ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

1-diagramma

**“O‘zbekinvest” EIMSK bo‘yicha qabul qilib olingan sug‘urta
majburiyatlarining dinamikasi¹⁵ (mlrd.so‘m)**




Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2010-2012 yillarda qabul qilib olingan sug'urta majburiyatlari hajmida doimiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Jumladan, 2012 yilda “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tomonidan jami 36800,0 mlrd.so'm miqdorida sug'urta javobgarligi qabul qilingan. Bu o'tgan 2011 yilning tegishli ko'rsatkichidan 193,6 foizga ko'pdir.

YUqorida qayd etganimzdek, 2012 yilda “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi va uning joylardagi filiallari tomonidan jami 42762,0 mln.so'm miqdorida sug'urta mukofotlari yig'ishga erishilgan. Bu o'tgan 2011 yilning ko'rsatkichidan 137,5 foizga yoki mutloq raqamlarda 11672,0 mln.so'mga ko'pdir. Quyidagi diagrammada kompaniya tomonidan 2010-2012 yillar davomida to'plangan sug'urta mukofotlari trendi keltirilgan (2-diagrammaga qarang).

2-diagramma

**2010-2012 yillarda “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta
kompaniyasi tomonidan to‘plangan sug‘urta mukofotlari dinamikasi¹⁶
(mlrd.so‘m)**

¹⁵ “Ўзбекинвест” ЭИМСКнинг йиллик ҳисобот маълумотлари.

¹⁶ “Ўзбекинвест” ЭИМСКнинг йиллик ҳисобот маълумотлари





Diagramma ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2010 yilda "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tomonidan jami 22,6 mlrd.so'm miqdorida sug'urta mukofotlari kelib tushgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilga kelib 42,8 mlrd.so'mga etgan. Boshqacha so'z bilan ifodalaganda o'sish ko'rsatkichlari qariyb 2 martani tashkil etgan.

"O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasining yuqori natijalarga erishishining asosida yuqorida qayd etilgan strategik rivojlanish tamoyillari yotibdi. Har bir sohaga innovatsion yondashuv, yangi sug'urta mahsulotlari va eng asosiysi yuridik va jismoniy shaxslar – mijozlarga ularning talab, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sug'urta xizmatlarini ko'rsatish ushbu kompaniyaning raqobatga asoslangan bozor sharoitida raqobat ustunligini belgilab beradi.

3-diagramma

"O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tomonidan to'langan sug'urta qoplamalari dinamikasi¹⁷ (mlrd.so'm)

¹⁷ "Ўзбекинвест" ЭИМСКнинг йиллик ҳисобот маълумотлари.




YUqorida keltirilgan diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2010-2012 yillarda "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tomonidan to'langan sug'urta qoplamalari dinamikasida notekis tendensiya kuzatilgan. YA'ni, 2010 yilda kompaniya tomonidan 5,4 mlrd.so'm miqdorida sug'urta qoplamalari to'langan bo'lsa, 2011 yilda to'langan sug'urta qoplamalari miqdori 5,3 mlrd.so'mni yoki 2010 yilga nisbatan 0,1 mlrd.so'mga kam sug'urta qoplamalari to'lovi amalga oshirilgan. 2012 yilda esa kompaniya tomonidan amalga oshirilgan sug'urta qoplamalari miqdori 6,4 mlrd.so'mni tashkil etgan.

"O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasida milliy eksporterlarni kompleks sug'urtalashga alohida e'tibor berilmoqda. CHunonchi, kompaniya 2012 yilda umumiy majburiyatlar summasi 236,1 mlrd. so'm miqdorida bo'lgan sug'urta polislarini sotishga erishdi. SHu bilan birga, eksportni sug'urtalash yuzasidan qabul qilingan majburiyatlar hajmi 2012 yil yakunlari bo'yicha 2011 yil bilan taqqoslaganda 22,6 foiz o'sishiga erishildi.

4-diagramma

Milliy eksportchilar va investorlarning mulkiy manfaatlarini sug'urtalash bo'yicha olingan majburiyatlarning o'sish dinamikasi (mlrd. so'm)¹⁸

¹⁸ "O'zbekinvest" ЭИМСКнинг йиллик ҳисобот маълумотлари.



“O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi faoliyatining muhim tamoyili mijozlar ishonchi va e’tirofiga erishishga harakat qilishdan iborat. Bunga, eng avvalo, jadal va sifatli xizmat ko‘rsatish, sug‘urta holatlari yuz bersa sug‘urta to‘lovlarini (tovon pullarini vaqtida to‘lash yo‘li bilan erishiladi. Qanday mijozni birinchi navbatda qiziqtiradigan sug‘urta to‘lovlarining amalga oshirilishi haqida so‘z borar ekan, shuni aytish mumkinki, 2012 yil yakunlari bo‘yicha 6,4 mlrd. so‘mdan ko‘proq sug‘urta bo‘yicha tovon pullari to‘landi, shulardan 1,1 mlrd. so‘mdan ko‘prog‘i jismoniy shaxslarga to‘g‘ri keldi. Kompaniya uchun to‘lovlarning mukofotlarga nisbati, ya’ni zararlilik (to‘lovlar) koeffitsenti 14,9 foizni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich ham O‘zbekistondagi, ham chet eldagi yirik sug‘urta kompaniyalari uchun o‘rtacha norma darajasidadir. 2011 yilga taqqoslaganda, amalga oshirilgan anderrayting tufayli ushbu ko‘rsatkich 1,6 foizga kamaytirildi. Masalan, chet eldagi dengizda yuk tashishni sug‘urtalash bilan shug‘ullanadigan sug‘urta kompaniyalarida zararlilik koeffitsenti, ba’zan 50-60 foizga etadi, hayotni cyg‘urtalash bilan shug‘ullanadigan kompaniyalarda esa mazkur ko‘rsatkich bundan ham yuqori darajadadir. SHuni aytmoqchimanki, kompaniyamiz har bir murojaat o‘z vaqtida va darhol ko‘rib chiqilishini juda qat’iy kuzatib boradi, buning uchun bizda hatto ixtisoslashgan assistans kompaniya – “O‘zbekinvest Assistans” tashkil etilgan.

Ushbu kompaniya tibbiy, yuridik va texnik assistans bo'yicha xizmat ko'rsatadi, u sutkasiga 24 soat ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 14 apreldagi PQ-325-sonli "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar va servis sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha 2006-2010 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasida kompaniya ko'rsatilayotgan xizmatlar assortimentini kengaytirish va sifatini oshirish ishlarini davom ettirdi.

SHuningdek, 2012 yilda tadbirkorlik xatarini ko'chmas mulkni garovga olgan holda sug'urtalash, iste'mol kreditlari berish bilan bog'liq bank xatarini sug'urtalash (ipotekani kompleks sug'urtalash), tibbiy xarajatlarni sug'urtalash (tibbiy sug'urtalash), avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash) va boshqalar sohasida bir qator sug'urta mahsulotlari (shu jumladan, ularga uslubiy ko'rsatmalar ham) ishlab chiqildi, muayyan ijobiy natijalar qo'lga kiritildi.

Turgan gapki, kompaniya 2012 yilda bu ishni davom ettiradi, shu bilan birga yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar, ustuvor tamoyillarga hamda hozir amal qilib turgan sug'urta dasturlarini modernizatsiyalash va respublika iqtisodiyotining hamma tarmoqlarini qamrab oladigan yangi sug'urtalash dasturlarini joriy etish siyosatiga qat'iy amal qiladi, bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektoriga alohida e'tibor beradi.

2012 yilda kompaniya uzoq va yaqin xorij mamlakatlaridagi yana ettita etakchi brokerlik va ettita qayta sug'urtalash kompaniyasi bilan hamkorlik o'rnatdi. Bu ishdan maqsad amalga oshirilayotgan sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlash, katta-katta xatarlarni qayta taqsmilash va diversifikatsiyalashdan iboratdir. Umuman olganda, "O'zbekinvest" kompaniyasi faoliyat boshlaganidan beri chet ellik sheriklar bilan hamkorlik qilish to'g'risida 50 dan ortiq bitim va shartnoma tuzdi.

Kompaniyaning kreditlar va investitsiyalar sug'urtachilari Bern Ittifoqining Parij klubiga a'zoligi doirasida SMECA (Serbiya va CHernogoriya) va ECGA (Ummon) bilan hamkorlik haqida bitim, EGFI (Eron) bilan fakultativ

qayta sugʻurtalash haqida bitim hamda Islom investitsiyalarni va eksport kreditlarini sugʻurtalash korporatsiyasi (ICIEC) bilan oʻzaro anglashuv Memorandumi imzolandi. Ushbu bitimlar boʻyicha mamlakatimiz korxona va tadbirkorlari bilan savdo-sotiqni amalga oshirayotgan muqobil sheriklarga doir axborot hamda oʻzaro tajriba almashish taʼminlanmoqda. SHunday qilib, biz milliy eksportchilarimizga ularning chet eldagi sheriklari, sheriklarning moliyaviy ahvoli haqida axborot berish yoʻli bilan yaqindan yordam berayapmiz, ularning tijorat va siyosat bilan bogʻliq xatarlarini baholayapmiz. Biz eksport xatarlarini sugʻurtalashga yoki qayta sugʻurtalashga qabul qilish bilan tadbirkorimizning ishonchli ekanligini tasdiqlayapmiz. Turgan gapki, “Oʻzbekinvest” eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasi u yoki bu kompaniyalar haqidagi biror bir moliyaviy maʼlumotni oshkor qilmaydi, lekin uning u yoki bu bitimni sugʻurtalashga rozilik berishi yoki sugʻurtalashni rad etishining oʻziyoq mijozga maʼlum bir belgi boʻladi va biz unga boshqa sxemalardan foydalanishni tavsiya etishimiz mumkin.

2012 yilda ham biz chet eldagi sugʻurta va qayta sugʻurtalash kompaniyalari-yangi sheriklar bilan hamkorlik oʻrnatish va mavjud sheriklar bilan hamkorlikni kengaytirish ishlari davom ettiriladi.

Oʻzbekistan reyting kompaniyasi ham «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasiga munosib baho berib, unga Oʻzbekistondagi sugʻurta kompaniyalari orasida eng yuqori reytingni - «UzA+» («yuqori ishonchlilik darajasi») reytingini berdi. SHuningdek, kompaniya har yili «PraysvoterxausKupers» («PriceWaterhouseCoopers») kompaniyasida tashqi moliyaviy auditdan muvaffaqiyatli oʻtib kelmoqda va sifat menejmenti tizimining ISO 9000:2001 xalqaro standartiga muvofiqlik sertifikatiga ega.

Kompaniya bundan buyon ham jushqin rivojlanish, milliy eksportchilarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorini qoʻllab-quvvatlash, chet el investitsiyalarini jalb etishga yordam berish, ularni ishonchli sugʻurta himoyasi bilan taʼminlash, sugʻurtada innovatsiya texnologiyalarini joriy etish strategiyasiga amal qiladi. Kompaniya mijozlar bilan oʻz munosabatlarini

individual asosda tashkil etish, har bir sug'urta qildiruvchiga maksimum e'tibor bilan qarash, ularga har tomonlama puxta anderraytingni, sug'urta portfelining mutanosibligini va diversifikatsiyasini taklif qilishni mo'ljallamoqda.

2.2 “O'zagrosug'urta” DASK faoliyati va uning sug'urta xizmatlari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasining xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida” PF-4483-son Farmoni bilan mazkur nomdagi davlat qo'mitasi tashkil etildi. Yangidan tashkil etilgan davlat qo'mitasining asosiy vazifalaridan biri monopoliyaga qarshi samarali tartibotlar o'rnatish hamda tovar va moliya bozorlarida raqobat cheklanishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini amalga oshirish, monopolistik faoliyatni cheklash va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilib borish hisoblanadi¹⁹. Shuningdek, raqobat muhitini rivojlantirish uchun qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish va zarur shart-sharoitlarni shakllantirish, tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorlarida, birinchi navbatda ichki iste'mol bozorida va reklama sohasida nohalol raqobatchilikka chek qo'yish chora-tadbirlarini amalga oshirish, jamoat tuzilmalari bilan yaqindan muvofiqlashtirilgan holda iste'molchilarning qonuniy manfaatlari va huquqlari himoya qilinishini ta'minlash ham O'zbekiston Respublikasi xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan sanaladi.

Mustaqillik yillari O'zbekiston sug'urta bozorida monopolistik faoliyatni cheklash va uni bartaraf etish yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonunning 24-moddasida quyidagilar belgilab qo'yildi: “Sug'urta bozorida raqobatni cheklash yoki bartaraf etishga, bir sug'urtalovchilarga boshqalariga qaraganda asossiz afzalliklar berilishiga yoki olinishiga, sug'urta qildiruvchilar va boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga

¹⁹ 2012 yil 13 noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasining xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida” PF-4483-son Farmoni.

qaratilgan faoliyatga yo'l qo'yilmaydi. Sug'urtalovchilar va sug'urta vositachilariga o'z uyushmalari (ittifoqlari) va boshqa birlashmalaridan sug'urta bozorini monopollashtirishga qaratilgan bitimlarga erishish yo'lida foydalanish taqiqlanadi»²⁰.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sug'urta faoliyatini amalga oshirishda davlat sug'urta organlarining ustun mavqei bartaraf etildi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, hamon "O'zagrosug'urta" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi respublikamizning qishloq xududlarida aholiga va korxonalarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha monopol bo'lib kelmoqda. Mamlakatimizning aksariyat qishloq xududlarida ushbu kompaniyaning tuman bo'limlari mavjud bo'lib, ularga raqobat qila oladigan sug'urta tashkilotlari yoki ularning filiallari mavjud emas. Biz shu erda "O'zagrosug'urta" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasining faoliyat yo'nalishlarini tahlil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.


"O'zagrosug'urta" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi 1997 yil 25 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 5 iyuldagi "O'zagrosug'urta" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-1783-sonli Farmoniga asosan kompaniyaning ustav fondi 10214,8 mln.so'm miqdorida shakllantirildi.

Bu mablag' ta'sischi o'rtasida quyidagicha taqsimlangan (5-diagrammaga qarang). O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng sug'urta bozorini shakllantirish bo'yicha tub o'zgarishlar yuz berdi. Iqtisodiy islohotlar tufayli tarmoqda raqobat asosida faoliyat ko'rsatadigan turli mulkchilik shakllaridagi sug'urta kompaniyalari vujudga keldi. Mulklarni davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirishi, yangi tipdagi tadbirkorlik tuzilmalarini vujudga kelishi, tashqi iqtisodiy faoliyatning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni keskin oshishiga sabab bo'ldi.

²⁰ "Sug'urta faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

“O’zagrosug’urta” davlat-aktsiyadorlik sug’urta kompaniyasi ustav fondida ta’sischilarning ulushi²¹



Iqtisodiy islohotlar boshlangan 1991 yilning o’zida amalda qariyb 70 yil davomida yakka hokim sifatida faoliyat ko’rsatib kelgan “Gosstrax” organlariga raqobatlasha oladigan nodavlat sug’urta kompaniyalari faoliyat ko’rsata boshlagan edi.

Diagramma ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, kompaniyaning ustav fondida eng katta ulush O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli bo’lib, uning hissasi 75,6 foizga teng. “O’zpaxtasanoat” uyuushmasining kompaniya ustav fondidagi ulushi 1348,4 mln.so’mni yoki jamiga nisbatan 13,2 foizni tashkil etadi. Ko’rinib turibdiki, “O’zagrosug’urta” davlat-aktsiyadorlik sug’urta kompaniyasi ustav fondida Moliya vazirligi va “O’zpaxtasanoat” uyushmasining birgalikdagi ulushi 88,8 foizni tashkil etgan.

Darhaqiqat, mamlakatimizda olib borilgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish natijasida, hamda sug’urta xizmatlari sohasini samarali rivojlantirishni ta’minlash, dexqonchilik mahsuloti etishtiruvchilarni va aholini sug’urta yuli bilan himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zagrosug’urta» Davlat-aktsiyadorlik sug’urta kompaniyasini tuzish to’g’risida”gi 1997 yil 25 fevraldagi

²¹ “O’zagrosug’urta” davlat-aktsiyadorlik sug’urta kompaniyasining yillik hisobot ma’lumotlari asosida tuzildi.

№ PF-1713-sonli Farmoniga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zagrosug'urta" Davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 1997 yil 6 martdagi №125-sonli Qaroriga muvofiq, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini sug'urta himoyasi uchun qulay sharoitlar yaratish va qishloq joylarda sug'urta xizmatlari sohasini samarali rivojlantirishni ta'minlash maqsadida, davlat ishtirokida ixtisoslashgan "O'zagrosug'urta" Davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi tuzildi.

"O'zagrosug'urta" DASK qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga va qishloq aholisiga sug'urta himoyasini taqdim etuvchi, respublikada asosiy sug'urta kompaniyasi bo'lib qolmoqda. 2013 yilning 1 may holatiga kompaniyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda direktsiyalari mavjud. Shuningdek, Toshkent shahrida "Poytaxt sug'urta" shu'ba korxonasi negizida kompaniyaning Toshkent shahridagi direktsiyasi tashkillashtirildi. Butun respublika bo'ylab kompaniyaning 186 ta bo'limlari joylarda yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta xizmatining ko'p turlarini taklif etadi. Bugungi kunda kompaniya qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun ixtiyoriy sug'urtalashning 90 dan ziyod turlarini taqdim etadi.


2012 yilda O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha jami 285,9 mlrd.so'm sug'urta mukofotlari to'plangan bo'lsa, uning 46,2 mlrd.so'mi "O'zagrosug'urta" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi hissasiga to'g'ri keladi. Buni quyida keltirilgan diagramma ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin (6-diagrammaga qarang).

So'ngi 2 yil davomida "O'zagrosug'urta" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasining O'zbekiston sug'urta bozoridagi ulushi yuqori darajada saqlanib qolishining asosiy sababi 2008 yili joriy etilgan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bilan uzviy bog'langandir.

6-diagramma

2012 yilda O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlari hajmida "O'zagrosug'urta" DASKning ulushi²²

2012



2012 yilning tegishli statistik ma'lumotlarini tahlili "O'zagrosug'urta" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari tarkibida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi katta o'rin tutishini ko'rsatmoqda. Quyida keltirilgan diagramma ma'lumotlari shundan guvohlik beradi (7-diagrammaga qarang).

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2012 yilda kompaniya bo'yicha kelib tushgan jami sug'urta mukofotlari 46,2 mlrd.so'mni tashkil etgan. Uning tarkibida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari 16,2 mlrd.so'mga yoki jami sug'urta mukofotlarining 26,0 foiziga teng bo'lgan.


Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, respublika milliy sug'urta bozorida monopolistik faoliyatning namoyon bo'lishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib,

7-diagramma

"O'zagrosug'urta" DASK bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari tarkibida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishning salmog'i²³

²² "O'zagrosug'urta" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasining hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi.

2012



■ "O'zagrosug'urta" DASK bu'yicha kelib tushgan jami sug'urta mukofotlari

■ Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bu'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari

bunday holat qishloq xo'jalik sug'urtasini amalga oshirish bilan bog'langan. 2008 yilda qishloq xo'jalik sug'urtasi bozoriga "Agroinvest sug'urta" sug'urta kompaniyasining kirib kelganligiga qaramasdan sohani sug'urta himoyasiga qamrab olishda "O'zagrosug'urta" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasining yaqqol ustunligi sezilib turibdi. Mazkur kompaniya nafaqat, qishloq xo'jalik tarmog'iga sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda monopol hisoblanadi, balki qishloq tumanlarida sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda ham monopol hisoblanadi.


SHu bilan bir qatorda, milliy sug'urta bozorda transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta shartnomalarini tuzishda sug'urta kompaniyalarining ulushi ham o'zgacha tus olmoqda (8-diagrammaga qarang).

8-diagramma

TVEFJMS bo'yicha sug'urta shartnomalarini tuzishda sug'urta²⁴ kompaniyalarining ulushi (2013yil bo'yicha foizda)

²³ "O'zagrosug'urta" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

²⁴ Молия вазирлиги маълумотлари асосида тузилган.




8-diagrammada, transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta shartnomalarini tuzishda sug'urta kompaniyalarining ulushi keltirib o'tilgan bo'lib, unda transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta shartnomalarini tuzishda "O'zagrosug'urta" DASK, "Kafolat" DASK, "Kapital-sug'urta", "Alskom" sug'urta kompaniyalari etakchi o'rinni egallab kelgan.

SHuningdek sug'urta bozorida transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urtalovchilarning sug'urta qoplamalarini to'lashda ham sug'urta kompaniyalari o'ziga xos o'rinlarni egallab kelmoqda (9-diagrammaga qarang).

9-diagramma

**TVEFJMS bo'yicha sug'urtalovchilarning sug'urta qoplamalarini to'lashdagi ulushi²⁵
(2013 yil bo'yicha foizda)**

²⁵ Молия вазирлиги маълумотлари асосида тузилган.



O'zbekiston sug'urta bozorida umumiy ko'rinishdagi monopolistik faoliyat ko'zga tashlanmaydi. Ammo, qonunchilik hujjatlariga muvofiq ayrim sug'urta turlarini amalga oshirishda monopoliyaga yaqin unsurlar mavjud. Bunga misol tariqasida harbiy xizmatchilar va ularga tenglashtirilgan shaxslarning majburiy davlat sug'urtasini keltirish mumkin. Gap shundaki, 2003 yildan buyon mazkur sug'urta turini monopol shaklda "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi amalga oshirib kelmoqda. To'g'ri, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Fuqarolik kodeksining 961-moddasida "Majburiy davlat sug'urtasi bevosita sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida unda ko'rsatilgan davlat sug'urta tashkilotlari yoki davlatning boshqa tashkilotlari (sug'urtalovchilar) tomonidan amalga oshiriladi"²⁶ deb ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Harbiy xizmatchilar, rahbar va oddiy askarlar tarkibiga kiruvchi shaxslarni davlat majburiy sug'urtasi to'g'risida" 1994 yil 26 yanvardagi 38-sonli va "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli qarorlari asosida harbiy xizmatchilarning majburiy davlat sug'urtasi joriy etilgan. Ushbu sug'urta turi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati,

²⁶ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.

Davlat bojxona qo'mitasining rahbarlar va oddiy askarlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilarni baxtsiz hodisalardan ehtiyoti shart sug'urta qilishni nazarda tutadi.

Harbiy xizmatchilarning davlat majburiy sug'urtasini 2002 yilning oxirigacha "Kafolat" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi amalga oshirib kelgan. Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2003 yilning 1 yanvaridan mazkur sug'urta turini "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi amalga oshirib kelmoqda. Harbiy xizmatchilarning davlat majburiy sug'urtasida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Rahbar va oddiy askarlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar, harbiy chaqiruvga kelgan harbiy xizmatga majbur shaxslar sug'urta qilingan shaxslar deb ataladi. Sug'urta mukofoti sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtalanayotgan shaxslarning haqiqiy sonidan kelib chiqib, har bir sug'urta qilinayotgan shaxslar uchun eng kam oylik ish haqining 20 foizi miqdorida sug'urta tashkilotiga to'lanadi. 2013 yilning 1 may holatiga O'zbekiston Respublikasi xududida eng kam oylik ish haqi 79590 so'mni tashkil etishini e'tiborga olsak, yuqorida nomlari zikr etilgan idoralar har bir sug'urtalayotgan shaxs uchun 15918 so'm sug'urta mukofoti to'lashi lozim. Bizning fikrimizcha, bu sug'urta turini amalga oshirishda monopolistik faoliyatni oldini olish maqsadida harbiy xizmatchilarning majburiy davlat sug'urtasini amalga oshirish huquqini olish uchun sug'urta tashkilotlari o'rtasida tender o'tkazish maqsadga muvofiq. Yoki harbiy xizmatchilarni majburiy sug'urtasini o'z tarkibiga oluvchi ixtisoslashgan harbiy sug'urta tashkilotini tashkil etishni taklif etamiz.

III.BOB. O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish

3.1. O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari

Oxirgi yillarda respublikamizda sug‘urta xizmatlari bozorini taraqqiy ettirish, tarmoqda bozor mexanizmlarini keng ko‘lamda joriy etish yuzasidan e’tirof etishga arzigulik ishlar amalga oshirildi. SHuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori sug‘urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasini oshirish,

ularning respublika hududlarida agentlik shaxobchalarini kengaytirish va investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etdi.

SHu bilan bir qatorda 2008 yil 21 aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”, 2009 yil 17 martda “Ish beruvchining fuqorolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi tufayli jamiyatda sug‘urtaning nufuzi oshdi. SHunisi diqqatga sazovorki aholining sug‘urta tizimiga bo‘lgan ishonchi yanada ortdi.

2010 yil 26 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli qarori sug‘urta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi davomi bo‘ldi. Mazkur qarorga asosan, 2011-2015 yillarda sug‘urta sohasini rivojlantirish bo‘yicha rejalar belgilab olindi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorini rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri sug‘urta tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarining ko‘lami va sifatini oshirish masalasidir. CHunki so‘nggi yillarda sug‘urtalovchilar yuridik va jismoniy shaxslarga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish saviyasini oshirish borasida bir muncha chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Ammo tadqiqotlarning ko‘rsatishicha va bozor ekspertlarining fikricha, respublikamiz sug‘urta bozorida chakana sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish talab darajasida emas. Bunga jiddiy e‘tibor qaratishning asosiy sababi shundaki, chakana xizmatlar orqali aholining keng qatlamini sug‘urta himoyasiga olish imkoniyati tug‘iladi.

Mamlakat sug‘urta bozorini isloh qilish va rivojlantirishning yana bir yo‘nalishi, fikrimizcha, mijozlarning sug‘urtaga bo‘lgan qiziqishlarini umumlashtirish va amaliy choralar ishlab chiqish maqsadida sohada sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish ishlarini faollashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu

jarayonda marketing tadqiqotlarini amalga oshirishga ixtisoslashgan konsalting kompaniyalari va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu holatlar O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish va uni maqsadli boshqarish muammolarining asosiy jihatlari hisoblanadi. SHularni inobatga olganda sug'urta xizmatlari va uning bozorini rivojlantirish va boshqarishning konseptual qoidalarini hamda institutsional asoslarini ishlab chiqish, sug'urta kompaniyasi menejmenti samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini yaratish iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichdagi ustuvor vazifalarni hal etishdagi o'ta dolzarb muammo hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barcha bosqichlarida davlat darajasida sug'urta xizmatlari bozorining shakllanishi, ijtimoiy barqarorlashish, biznes infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish chora-tadbirlarining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi. Uning rivojlanishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

- sug'urtalovchilar va sug'urta qildiruvchilar xususiy mulkini huquqiy ta'minlash va sug'urta xizmatlari bozorini faoliyat ko'rsatishi, sug'urta faoliyatini davlat tomonidan boshqarish mexanizmlarini o'z ichiga oluvchi rivojlangan jahon bozori tizimiga mos keluvchi yangi sug'urta institutlarining shakllanishini nazarda tutuvchi o'ziga xos yangi milliy sug'urta tizimini yaratish;

- davlatning to'g'ridan-to'g'ri ishtiroki va ko'magida rivojlanayotgan xususiy biznes va aholining qaltisliklarini o'z bo'yniga olishga qodir bo'lgan yangi sug'urta kompaniyalari faoliyatini kengaytirish va tashkil etish;

- yangi xususiy sug'urta tashkilotlarining rivojlanishi va hududiy bo'linmalar tarmog'ining tashkil etilishini rag'batlantirish;

- aholining yangi sug'urtalovchilar va sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchini oshirish chora-tadbirlarini amalda ijro etish;

Bugungi kunga kelib, ya'ni 2014 yilda O'zbekiston sug'urta bozorida 31 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, bulardan 1 tasi davlat

sug'urta kompaniyasi, 3 tasi shu'ba xo'jalik jamiyatlari, 10 tasi aksiyadorlik jamiyati shaklida, 17 tasi ma'suliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil qilingan. SHunisi diqqatga sazovorki 2013 yilga nisbatan sug'urta tashkilotlari soni 3 taga kamaygan. Bu o'z navbatida sug'urta bozorida yig'iladigan sug'urta mukofatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. SHuning uchun sug'urta bozorini rivojlantirish uchun albatta mingtaqalarda, uzoq tog'li rayonlarda ularning filial va bo'linmalarini ochish zarur.

SHu bilan bir qatorda sug'urta faoliyatini yurituvchi sug'urtalovchilar soni ko'paygani juda quvonarli bo'lsa, ularni hududlarda tashkil qilingan faoliyatlarini yanada jonlantirish kerak. SHundagina biz sug'urta faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirgan bo'lamiz. SHu bilan bir qatorda sug'urtalovchilar faoliyatini hayot sug'urtasi tarmog'i bo'yicha ixtisoslashgan holda tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu holat birinchi navbatda sug'urtalovchilarni qo'shimcha investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu o'z navbatda sug'urtalovchilarni hududlarda filiallarini va vakolatxonalarini tashkil qilishga olib keladi. SHuningdek sug'urta bozorida mavjud potensial sug'urtalovchilar soni kamaytirish kerak. Buning uchun sug'urtalanuvchilari o'rtasida sug'urta madaniyatini oshirish hamda yangi sug'urta mahsulotlarini yaratish kerak. YA'ni shunday sug'urta mahsulotlari bo'lish kerakki u sug'urtalanuvchilarga maqbul qulay bo'lishi va ular hayotini ajralmas bo'g'ini bo'lishi kerak. Bunday jarayonlarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda ishlab chiqarish jarayoni ko'lamini kengaytirish va fuqorolarni ish bilan bandlik darajasini yanada ko'tarishni talab qiladi. SHuni e'tibor olish lozimki sug'urtalovchilar faoliyati qanchalik darjada ko'p tashkil qilinsa, shunchalik darjada sug'urtaga bo'lgan talab va taklif yuqoriligini bildiradi. Sug'urtaga bo'lgan talab qancha yuqori bo'lsa shunchalik darjada sug'urta mahsulotlari taklif etiladi. Bu o'z-o'zidan sug'urta faoliyatini tashkil etilishni takomillashtiradi.

Xulosa

O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni tashkiliy-huquqiy shakllari hamda uni takomillashtirish bo'yicha, yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi xulosa va takliflarni ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

1. Sug'urta munosabatlarida sug'urta kompaniyalari bilan bir qatorda ko'plab sub'ektlar ishtirok etadi, xususan qayta sug'urta kompaniyasi sug'urta brokerlari va agentlar aktuariylar, adjasterlar, syurveyerlar va asistans xizmatlari shu jumladandir. Ilmiy izlanishlar respublikamiz sug'urta bozorida aktuariylar, adjasterlar, syurveyerlar va asistans xizmatlari aytilgan darajada rivojlanmagan ko'rsatadi. SHuning uchun sug'urta bozorida ushbu sug'urta xizmatlarini takomillashtirish kerak. Bu birinchidan aholiga qulay sug'urta xizmatlari

yaratilganligi hamda sug'urta bozorida sifatli sug'urta xizmati va sug'urta xizmatiga olishga bo'lgan ishonch sug'urtalanuvchilar o'rtasida ortadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

2. Aktuar hisob-kitoblar sug'urta munosabatlarining ishonchliyligini va moliyaviy barqarorligini oshirishdagi muxim elementi bo'lganligi sababli sug'urta bozorida sug'urta ta'rif stavkalarini hisoblashga asos bo'ladigan statistik ma'lumotlarni markazlashtirilgan ba'zasini yaratish maqsadga muvofiq bular edi. Chunki endi ochilgan yangi kompaniyaning imkoniyatlari bunday vazifani amalga oshirishga etarli bo'lmاسligi mumkin. SHuning uchun aktuar markazlar faoliyatini kengaytirish kerak. Bu o'z navbatida ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlarni sug'urtalanuvchilar oldida ishonchliligini yanada oshiradi.

3. Sug'urtaga olinayotgan ob'ektlarni muxandislik nuqtaiy nazardan ekspertizadan o'tkazishga va qaltisliklarni baholashga qodir etakchi mutaxassislar va sug'urta hodisalarini xolisona ko'rib chiquvchi tuzilmalar tarmog'ini tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga sezilmoqda. SHuni e'tiborga olgan holda sug'urta syureverlari va adjastirlar faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Chunki ushbu mutaxassislar nafaqat sug'urta kompaniyasining manfaatlarini qolaversa sug'urtalanuvchilarni ham sug'urta sohasidagi manfaatlarini himoya qilishda juda muhim ahamiyatga ega.

4. O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirishni quydagi yirik yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- sug'urtalovchilar tomonidan iqtisodiyotning kengroq qamrab olishni taminlash maqsadida, sug'urta xizmatlarini sotish yo'nalishlarini elektron tizimi asosida qulaylashtirish ya'ni internet orqali amalga oshirishni yo'lga qo'yish;

- sug'urta tashkilotlarida sug'urta zahiralarining majburiyatlarga muvofiq va okilona shakllantirishni ta'minlash;

- qayta sug'urtalash munosabatlarini rivojlantirish ularning ko'lamini kengaytirish uchun zarur shart sharoitlar yaratish;

5. Sug'urtalovchilar tomonidan amalga oshirilayotgan ta'rif siyosatining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, ular tomonidan sug'urtalash jarayonini sifatli va

barqaror bo'lishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Samarali ta'rif siyosatining asosini tashkil etuvchi tarkibiy qism bu sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqariladigan ta'rifikatsiya tizimi hisoblanadi. Ta'rifikatsiya tizimini shakllantirishda sug'urtalovchi eng avvalo amalga oshiradigan sug'urta turlarini hisobga olishi zarur vaholanki ta'rifikatsiya tizimini shakllantirishda risklarni guruhlashning eng optimal holatini aniqlash uning samaradorligini belgilab berruvchi omil hisoblanadi. Chunki risklarni haddan ziyod ko'p guruhlarga ajratish ortiqcha xarajat va vaqtning sarflanishiga olib kelsa etarli darajada guruhlanmagan risklar, risklar antiseleksiyasi va to'lovga noqobillikni keltirib chiqarish mumkin. Shuning uchun sug'urtalovchilar tomonidan ta'rifikatsiya tizimini shakllantirishda risk omilari va risklarning antiseleksiyasiga yo'l qo'ymaslikka etibor berish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

6. Sug'urta munosabatlarini tashkil etishda:

- sug'urta tashkilotlarining o'ziga xosligi va tutgan o'rnini aniqlab olish;
- biznesni yuritishda yangilikni doimo kiritib borish;

- rakobatdagi o'z afzaliklarini doimo izlab topish va foydalanish har bir mijozning talablariga qarab ish ko'rish bozor munosabatlari rivojlanib borayotganda o'z samarasini berishni isbotlaydi.

7. Ba'zi mamlakatlarda sug'urta zahiralarini tashkil etishning me'yoriy usuli qulaniladi ammo bu usulda hisob-kitob avvalgi yil sug'urta mukofotlari va sug'urta qoplamalari miqdoriga asoslanib amalga oshiriladi. Sugurta zahirolari esa sug'urtalovchining kelajakdagi mo'ljaldagi majburiyatlarini tasvirlaydi. SHunday qilib agar joriy yilning zararliyligi avvalgi yilnikidan ancha katta bo'lsa sug'urta tashkilotlarida mablaglarning etishmovchiligi paydo bo'lishi mumkin. Albatta bunday holatda zararliylikni tebranish zahirasi qo'llash mumkin, lekin buning uchun bu zahiraning hajimini ancha oshirish lozim bo'ladi. Bu esa pul mablag'larining samarasiz ishlatilishiga olib keladi. Inflatsiya sharoitida yoki sug'urta mukofotlari mutassil o'sayotgan sharoitda me'yoriy usulni qo'llash moliyaviy barqarorlik nuqtaiy nazaridan maqsadga muvofiq emas va ta'riflarning oshirishga olib keladi me'yoriy usulni asosida

yirik shartnomalar yotadigan barqaror sug'urta portfe'liga ega kompaniyalaridagina qo'llash maqsadga muvofiq bo'lardi.

8. Sug'urta munosabatlarini rivojlantirish va tartibga solish sohasida yutuqlarga erishgan bo'lishiga qaramay sug'urta mukofotining yalpi ichki maxsulotdagi hozirgi ulushi sug'urta bozorining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini katta emasligidan dalolat beradi. Sug'urtaning o'sishi umumiy iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'likdir. SHu bilan birga sug'urtaning o'rni kichik bo'lgan sharoitda turli islohatlarni joriy qilish va sug'urta bozorini rivojlantirishning tug'ri yo'lini tanlash imkoniyati katta bo'ladi va bozordagi o'zgarishlar engil kechadi, bunday sharoitda qonuniy va me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish chet el tajribasini mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

9. Sug'urta kompaniyalarining mijozlar bilan munosabatini takomillashtirish maqsadida sug'urta vositachilarining rolini oshirishni taklif etamiz bunda asosiy e'tiborni sug'urta agentlari tarmog'ini kengaytirishni ayniqsa qishloq joylarida kengaytirishni zarur deb hisoblaymiz. Bu o'z navbatida sug'urta kompaniyalari transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratadi.

10. Sug'urta kompaniyalari faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi talab darajasida emas. Xususan sug'urta kompaniyalarida zamonaviy axborot texnologiyalarni ayniqsa hududlarda kengroq qo'llash orkali zamonaviy va sifatli sug'urta bozorini tashkil etish mumkin deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi-T.:O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003.-496 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida” Qonuni.–// «Xalq so‘zi» gazetasi, 2008 yil 22 aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida». - T.: 2002 y., 5 aprel.// «Xalq so‘zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida» Qonuni.T.:2007y., 15 sentyabr.// «Xalq so‘zi» gazetasi, 2007 yil 15 sentyabr.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga

- qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida» Qonuni. T.: 2009 y., 23 dekabr.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2009 yil 23 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida» Qonuni. «Xalq so'zi», 2008 yil 23 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-618-son Qarori.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2007 yil 11 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-872-sonli qarori. «Xalq so'zi», 2008 yil 22 may.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011 — 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-son Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-son Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3022-son Farmoni.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 1 fevral.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 286-sonli Qarori. 1998 yil 8 iyul.//O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari, 4-ilova, - T.: 2000.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.// O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlari to'plami, 2002, 11.

14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining "Sug'urtalovchining sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida" 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'i. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. – T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 52-son.
15. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 12 mayda 1806-son bilan ro'yxatga olingan va Moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida Nizom».
16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 3 iyuldagi "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 68-son buyrug'iga asosan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 16 iyulda 1982-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.
17. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazining qarori. "Sug'urtalovchilar tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatning amalga oshirilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 2 dekabrda 1876-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.
18. Karimov I.A. "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilning asosiy yakunlari va 2014 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi./Xalq so'zi, 2014 yil 18 yanvar.
19. Karimov I.A.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini

- shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir”. – T.: O’zbekiston, 2011. T.19. – 98 bet.
20. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari/I.A.Karimov.-T.: O’zbekiston,2009.-56 b.
21. Arxipov A.P., V.B. Gomellya, D.S. Tulenty. Straxovanie. Sovremennyy kurs: uchebnik-2-e izd, pererab. –M.: Finansy i statistika, INFRA-M, 2008 g. - 448 s.
22. Abramov V.YU. Straxovanie. Uchebnoe posobie. – M.: Volters Kluver, 2007. – s. 402.
23. Adamchuk N. Ocherki teorii straxovaniya: retrospektivniy analiz razvitiya. – M.: Ankil, 2009. – s.282.
24. Alekseev A. Straxovanie: uchebnoe posobie. – M.: Feniks, 2008. – s.316.
25. A.Arhipov. Anderrayting v straxovanii. Teoreticheskiy kurs i praktikum: uchebnoe posobie. – M.: YUNITI-DANA, 2009. –s.400.
26. Bakirov A. Formirovanie i razvitie rynka straxovoykh uslug. – M.: Finansy i statistika, 2007. – s.380.
27. Baymuratov T.M. Sugurta faoliyatida risklar transferi. Monografiya. – T.: IQTISOD MOLIIYa, 2005. – 196 b.
28. Baxramova G. Straxovanie – neot’emlemaya chast vedeniya biznesa// jurnal “Ekonomicheskiiy vestnik Uzbekistana”, 4/2009, str.58-59.
18. Veselovskiy M. Straxovoy servis: Uchebnoe posobie. – M.: “ INFRA – M”, 2009 g.
29. Gavrilova S. Straxovanie: Uchebnoe posobie. – M.: “Eksmo”, 2010 g. – 304 str.
30. Gvozdenko A. Straxovanie: ucheb.posobie. – M.: Prospekt, 2008. – s.238.
31. Gomellya V.Straxovanie: ucheb.posobie. – M.: Market DS, 2006. – s.200.
32. Godin A.M., Frumina S.V. Straxovanie: Uchebnik. - M.: «Dashkov I.K.», 2009 – 480 st.
33. Denisova I.Straxovanie.Uchebnik.– M.:IKS “MarT”, 2009 g.- 240 str.

34. Iminov T.K., Xasanov F.R. Osvoenie regionov – vajneyshiy faktor razvitiya straxovogo rynka// jurnal “*Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana*”, 4/2009, str.67-68.
35. Ikromov O.G., Gaybullaev B. Remni finansovoy bezopasnosti (obzor straxovogo rynka–2008)//*Ekonomicheskoe obozrenie*, №5-6, 2009 g. S.86-91.
36. Ikromov O.G. Straxovanie: vchera, segodnya, zavtra// *Narodnoe slovo*, 3 iyulya 2009 g. S.1-2.
37. Ikromov O.G’., Shennaev X.M. O’zbekistonda sug’urta xizmatlari bozori: rivojlanish tendentsiyalari va istiqbollari.// “*Moliya*” jurnali, 2008 yil 1-son.
38. Ikromov O.G. Moliya bozorining qudratli vositasi.// “*O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*” jurnali, 4/2009, 37-41 betlar.
39. Korotkova YU.E. Kratkiy kurs po straxovaniyu.Uchebnoe posobie. – M.: Okey-kniga, 2010. – s.240.
40. Kuznetsova I. Straxovanie jizni imushchestva grajdan. Prakticheskoe posobie. – M.: Dashkov i K, 2010. –s.400.
41. Nikulina N. Straxovoy marketing. Uchebnoe posobie. – M.: “YUNITI – DANA ”, 2009 g. – 503 str.
42. Nikulina N.N. Straxovanie. Teoriya i praktika: ucheb.posobie dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po spetsialnostyam: «Finansы i kredit», «Buxgalterskiy uchët, analiz i audit»: 2-e izd, pererab. - M.: YUNITI-DANA, 2008 g. - 511 s.
43. Nikulina N.N. Straxovoy marketing: ucheb.posobie dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po spetsialnosti «Finansы i kredit» - M.: YUNITI-DANA, 2009,-503 s.
44. Nurmuhamedov I. “O’zagrosug’urta”: salmoqli odimlar.// “*O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*” jurnali, 4/2009, 46-47 betlar.
45. Obzor straxovogo rynka Uzbekistana//*Biznes-vestnik Vostoka*, №3-4 13 yanvarya 2011 g. – str.9.
46. Основы straxovoy deyatel'nosti: Uchebnik./ Otv. red. Prof. T.A. Fedorova. - SPb.:Magistr , 2008.-768 s.

47. Ochilov I. Sug'urta hisobi va hisoboti. O'quv qullanma. – T.: IQTISOD MOLIYA, 2010. – 310 b.
48. Perspektivy razvitiya vzaimnogo straxovaniya v Uzbekistane. Analiticheskaya zapiska. – T.: Proekt PROON “Reforma gosudarstvennykh finansov v Uzbekistane ”, 2010 g.
49. Рыбин В. Основы straxovaniya. Uchebnoe posobie.–M.:KNORUS.– s. 256.
50. Samarova E. Straxovaya matematika: Prakticheskiy kurs.Uchebnoe posobie. – M.: Infra-M, 2009. – s.361.
51. Sovremennnoe sostoyanie, problemy i perspektivy razvitiya straxovaniya ot katastroficheskikh prirodnkh riskov v Uzbekistane. Analiticheskaya zapiska. – T.: Proekt: “Reforma gosudarstvennykh finansov v Uzbekistane”, 2010. s.210.
52. Straxovanie.Uchebnik.Pod red.T.A.Fedorovoy.–M.:Magistr2009–s.285.
53. Straxovanie: ekonomika, organizatsiya, upravlenie.Uchebnik. – M.: Ekonomika, 2010. – s.256.
54. Serbinovskiy B. Straxovoe delo. Uchebnoe posobie. – Rostov n/D: “Feniks ”, 2010 g. – 476 str.
55. Straxovanie: ekonomika, organizatsiya, upravlenie. Uchebnik. – M.: “Ekonomika”, 2010 g. - 751 str.
56. Straxovanie: uchebnik dlya studentov, obuchayuyshixsya po spetsialnostyam “Finansy i kredit”, “Buxgalterskiy uchët, analiz i audit” / pod. red.V.V.SHaxova,YU.T.Axvlediani.–M.:“YUNITI–DANA”, 2010 g.- 511 str.
57. Sug'urta agentlari uchun qo'llanma.– T.:“PRINTXPRESS”,2010y.– 208 bet.
58. “Uzagrosugurta”: straxovaya zaxita po vsemu Uzbekistanu//Biznes-vestnik Vostoka, №30, 14 aprelya 2011 g.-str.5.
59. Umarov S. O'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. Monografiya. – T.: Fan, 2011. – 238 b.
60. Filin S. Straxovanie i xedjirovanie riskov investitsionnoy deyatelnosti. – M.: Ankil, 2009. –s.216.

61. SHaxova V.V., Axvlediani YU.T. Straxovanie: uchebnik dlya studentov, obuchayushixsya po spetsialnostyam "Finansy i kredit", "Buxgalterskiy uchët, analiz i audit". – M.: YUNITI-DANA, 2009. – s.248.
62. SHaxov V. Straxovanie: Uchebnik. – M.: YUNITI-DANA, 2008. – s.295.
63. YUldashev R. Ocherki teorii straxovaniya: retrospektivniy analiz razvitiya. – M.: ANKIL, 2009. s.244.
64. Statisticheskoe obozrenie Uzbekistana// Goskomstat, 2012 g.
65. Xo'jaev Y. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta.O'quv qo'llanma.-T.:Soliq akademiyasi, 2005.
66. Shennaev X.M.,Sug'urta agentlari uchun qo'llanma.O'quv qo'llanma.-T.:info COM.UZMChJ nashriyoti, 2010y.
67. Shennaev X.M., Kenjaev I.G'. Chet mamlakatlar sug'urtasi. O'quv qo'llanma. T.,2012.
68. Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Tashqi iqtisodi faoliyatda sug'urta. O'quv qo'llanma. T.,2012.
69. Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Sug'urta marketingi. O'quv qo'llanma. T.,2012.
- 70 .Shennaev X.M., O'zbekiston sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. T.,2013y.

Internet saytlari

71. www.mf.uz.
72. www.sug'urta.uz.
73. www.UzReport.com.
74. www.uzbekinvest.uz.
75. www.agros.uz.
76. www.kafolat.uz.
77. www.kapitalsug'urta.uz.
78. www.alskom.uz.
79. www.allinsurance.ru.

80. www.znay.ru.